



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamov Amriddin Xamdam o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Taravat Abdul Salam	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Икрамова Нодира Бурхон кизи	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA YANGI KONSEPTUAL VA USLUBIY YECHIMLAR: SIRKULYAR IQTISODIYOT TAJRIBASI.....	180
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
BANKLARDA RISKLARNI BOSHQARISH, DAROMAD VA NATIJADORLIKNI OSHIRISH	185
Jo'rayev Bekzod Bahodir o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI MENEJMENTINI HUDUDIY KLASSTERLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH MODEL: TASHKILY-BOSHQARUV MEKANIZMLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	192
Rajapova Guldona Usman qizi	



INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI MENEJMENTINI HUDUDIIY KLASSTERLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH MODEL: TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

Rajapova Guldona Usman qizi

Qoraqalpog'iston Respublikasi. Beruniy tumani MMTBgga qarashli 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi.

Email: guldonarazhapova@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-5535-6209>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'limga bo'lgan talabning o'zgaruvchan tendensiyalariga javoban maktablar tarmog'ini moslashtirish yoki qayta tashkil etish orqali uning samaradorligini oshirish strategiyalari tahlil qilinadi. Unda maktablar tarmog'ini tashkil etishga ta'sir ko'rsatuvchi kontekstual tendensiyalar, shuningdek, uning tuzilishi, xizmat ko'rsatayotgan aholi qatlamlari va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidagi hududiy tafovutlar haqida umumiy ma'lumot beriladi. Qishloq va shahar maktablari tarmoqlari demografik hamda ijtimoiy tendensiyalar bilan bog'liq turli muammo va imkoniyatlarga duch kelishi sababli, maqolada hududiy yondashuv qo'llanilib, har ikkala sharoitda mamlakatlar tomonidan qo'llanilgan strategiyalar izchil yoritiladi. Dastlab, o'quvchilar sonining kamayishi bilan yuzlashayotgan qishloq va chekka hududlardagi maktablarning muammolari hamda siyosiy-boshqaruv yechimlari ko'rib chiqiladi. Shundan so'ng, o'quvchilar sonining ortishi va o'quvchilar tarkibining tobora xilma-xillashuvi bilan bog'liq muammolarga duch kelayotgan shahar maktablari tarmoqlarining muammolari va ularni hal etish bo'yicha siyosiy-boshqaruv variantlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: maktablar tarmog'i, maktablar tarmog'i samaradorligi, ta'limga bo'lgan talab, maktablarni qayta tashkil etish, qishloq maktablari, shahar maktablari, hududiy yondashuv, demografik o'zgarishlar, o'quvchilar soni, ta'limdagi xilma-xillik, hududiy tafovutlar, maktab menejmenti.

Аннотация. В статье анализируются стратегии повышения эффективности школьной сети посредством ее адаптации или реорганизации в ответ на изменяющиеся тенденции спроса на образование. Представлен общий обзор контекстуальных тенденций, влияющих на организацию школьной сети, а также территориальных различий в ее структуре, составе обслуживаемого населения и социально-экономических условиях. Поскольку сети сельских и городских школ сталкиваются с различными проблемами и возможностями, обусловленными демографическими и социальными тенденциями, в статье применяется территориальный подход и последовательно рассматриваются стратегии, используемые странами в обоих типах территорий. Вначале рассматриваются проблемы школ в сельских и отдаленных районах, сталкивающихся с сокращением численности учащихся, а также соответствующие политико-управленческие решения. Затем анализируются проблемы сетей городских школ, связанные с увеличением численности учащихся и растущим разнообразием их состава, а также политико-управленческие варианты решения данных проблем.

Ключевые слова: школьная сеть, эффективность школьной сети, спрос на образование, реорганизация школ, сельские школы, городские школы, территориальный подход, демографические изменения, численность учащихся, разнообразие в образовании, территориальные различия, школьный менеджмент.

Abstract. This article analyzes strategies for improving the efficiency of school networks by adapting or reorganizing them in response to changing trends in the demand for education. It provides an overview of the contextual trends affecting the organization of school networks, as well as territorial differences in their structure, the populations they serve, and their socio-economic conditions. Since rural and urban school networks face different challenges and opportunities associated with demographic and social trends, the article adopts a territorial approach and systematically examines the strategies employed by countries in both contexts. First, it considers the challenges faced by schools in rural and remote areas



experiencing declining student enrolment, along with the corresponding policy and management responses. It then analyzes the challenges faced by urban school networks due to increasing student enrolment and the growing diversity of the student population, as well as policy and management options for addressing these challenges.

Keywords: school network, school network efficiency, demand for education, school reorganization, rural schools, urban schools, territorial approach, demographic changes, student enrolment, diversity in education, territorial disparities, school management.

KIRISH

Biz bilamizki, yakka tartibdagi (birga-bir) pedagogik coaching qo'llab-quvvatlashi o'qituvchilarning kasbiy faoliyatidagi xatti-harakatlarini o'zgartirish va o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilashda yuqori samaradorlikka ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, bunday yondashuv ancha qimmatga tushadi va qisqa hamda o'rta muddatli istiqbolda uni har doim ham amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lavermaydi. Shu sababli, yaxshi ishlab chiqilgan maktab va maktablar klasteriga asoslangan o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish (TPD) yondashuvlari mahalliy sharoitga moslashtirilgan, amaliy va uzluksiz kasbiy qo'llab-quvvatlashni keng miqyosda yo'lga qo'yish uchun amaliy yechim bo'lishi mumkin.

Maktab va klasterga asoslangan dasturlar o'qituvchilar guruhlarining o'z kasbiy faoliyatini takomillashtirish maqsadida bitta maktab doirasida, bir nechta maktabdan tashkil topgan klasterlar miqyosida yoki ushbu ikki shaklning kombinatsiyasi asosida hamkorlikda faoliyat yuritishi bilan tavsiflanadi. Maktab va klasterga asoslangan malaka oshirish dasturlari o'qituvchilarning fan mazmuni hamda pedagogik metodlar bo'yicha bilimlarini rivojlantirishda samarali bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, bunday yondashuvlar hamkorlikning kuchayishi, tanqidiy tahlil va izlanishning rivojlanishi hamda o'qituvchilarning yetakchilik salohiyatining oshishi kabi muhim "jarayon afzalliklari"ni ham ta'minlaydi.

Maktab va klasterga asoslangan TPD dasturlarini samarali loyihalash va amalga oshirishni yo'naltirish maqsadida Jahon bankining Coach dasturi "Maktab va klasterga asoslangan uzluksiz o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini tuzilmaviy tashkil etish va qo'llab-quvvatlash: texnik yo'riqnoma"ni ishlab chiqqan. Mazkur hujjatda TPDning ushbu shakllarini loyihalash va amalga oshirish jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan beshta asosiy qaror qabul qilish yo'nalishi bo'yicha aniq tavsiyalar berilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish zamonaviy ta'lim tizimlarining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, uning mazmuni nafaqat alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarni umumiy ta'lim tizimiga jalb etish, balki ta'lim muassasalarining boshqaruv, resurs va pedagogik salohiyatini ushbu ehtiyojlarga moslashtirishni ham nazarda tutadi. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan inklyuziya va ta'limdagi tenglik bo'yicha qo'llanmada inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarning ta'lim olish jarayonida teng ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan tizimli yondashuv sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuv ta'lim siyosatini ishlab chiqish, amalga oshirish va monitoring qilish jarayonlarida inklyuziya hamda tenglikni alohida mezon sifatida hisobga olishni talab qiladi [1].

Inklyuziv ta'limning huquqiy va institutsional asoslari BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining 24-moddasida ham belgilangan. Unda nogironligi bo'lgan shaxslarning umumiy ta'lim tizimidan nogironligi sababli chetlashtirilmasligi, ular yashaydigan jamoalarda boshqa o'quvchilar bilan teng sharoitlarda sifatli va bepul boshlang'ich hamda o'rta ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi, shuningdek, zarur individual qo'llab-quvvatlash choralarining ta'minlanishi belgilangan [2]. Mazkur tamoyillar umumta'lim maktablari boshqaruvini inklyuziv ta'lim talablariga moslashtirish zaruratini kuchaytiradi.

Maktab boshqaruvi nuqtayi nazaridan UNESCOning Global Education Monitoring Report hisobotlarida ta'lim rahbarlarining inklyuziv va samarali ta'lim muhitini shakllantirishdagi roli alohida ta'kidlanadi. Samarali maktab rahbari faqat ma'muriy vazifalarni bajaruvchi shaxs emas, balki pedagoglar, ota-onalar, o'quvchilar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikda umumiy maqsadlarni shakllantiruvchi boshqaruv subyekti sifatida qaraladi. Vakolatlarni taqsimlash, jamoaviy qaror qabul qilish, o'qituvchilar hamkorligini kuchaytirish va muntazam fikr-mulohaza mexanizmlarini yo'lga qo'yish maktab boshqaruvi samaradorligini oshiruvchi omillar sifatida ko'rsatilgan [3].

OECD tadqiqotlarida maktablar tarmog'ini tashkil etishning hududiy xususiyatlari va uning ta'lim sifati hamda resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'siri keng tahlil qilingan. OECDning "Responsive School Systems" hisobotida demografik o'zgarishlar, o'quvchilar sonining hududlar bo'yicha turlicha dinamikasi va ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar maktablar tarmog'ini qayta tashkil etish zaruratini keltirib chiqarishi qayd etiladi. Xususan, qishloq va chekka hududlarda o'quvchilar sonining kamayishi natijasida maktab infratuzilmasida



ortiqcha quvvat shakllanishi mumkin bo'lsa, shaharlarda, aksincha, o'quvchilar sonining ortishi va ta'limga bo'lgan talabning ko'payishi kuzatiladi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, hududiy va klasterli yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda inklyuziv ta'lim muhiti alohida maktab doirasidagi pedagogik jarayon sifatida emas, balki maktablar tarmog'i, boshqaruv tuzilmasi, pedagogik kadrlar, maxsus mutaxassislar, infratuzilma va moliyaviy resurslarning o'zaro bog'langan tizimi sifatida ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotda, avvalo, ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlarning metodik materiallarini tizimli tahlil qilish usulidan foydalanildi. UNESCO, OECD, World Bank va UNICEF materiallari orqali inklyuziv ta'lim, maktab rahbariyati, maktab klasterlari, maktablar tarmog'i samaradorligi va resurslarni taqsimlash bo'yicha mavjud yondashuvlar o'rganildi. Xususan, OECDning maktablar tarmog'ini demografik va hududiy o'zgarishlarga moslashtirishga oid yondashuvi hamda World Bankning maktab va klasterga asoslangan kasbiy rivojlanish modelidan tadqiqotning konseptual asosini shakllantirishda foydalanildi [4; 6].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablari tarmog'ining samaradorligini oshirishda barcha maktablar uchun yagona boshqaruv modelidan foydalanish yetarli natija bermaydi. Chunki maktablarning hududiy joylashuvi, o'quvchilar soni, ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, moddiy-texnik bazasi va pedagogik resurslari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. OECD tadqiqotlarida ham maktablar tarmog'ini tashkil etishda hududiy tafovutlarni hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi. Ayniqsa, qishloq va shahar maktablari ta'limga bo'lgan talab, infratuzilma va resurslardan foydalanish nuqtayi nazaridan turli sharoitlarda faoliyat yuritadi [4].

O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilar sonining o'sib borishi ham maktablar tarmog'ini strategik rejalashtirish masalasini dolzarb qiladi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, umumta'lim muassasalaridagi o'quvchilar soni 2019/2020-o'quv yilidagi 6 168,2 ming nafardan 2023/2024-o'quv yilida 6 645,1 ming nafarga oshgan. 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra esa, ushbu ko'rsatkich 6 870,5 ming nafarga yetgan [9–10]. Demak, maktablar tarmog'ini boshqarishda o'quvchilar sonining hududiy dinamikasini hisobga olish, mavjud quvvatlardan samarali foydalanish va kelajakdagi talabni oldindan baholash zarur.

Shu bilan birga, inklyuziv ta'limning rivojlanishi maktab boshqaruvi oldiga qo'shimcha vazifalarni qo'ymoqda. Inklyuziv ta'lim sharoitida maktab faqat o'quv jarayonini tashkil etuvchi muassasa emas, balki turli ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilarni pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi muhit sifatida faoliyat yuritishi kerak. UNESCO maktab rahbarlari inklyuziv ta'limni rivojlantirishda pedagogik va ma'muriy resurslarni to'g'ri taqsimlash, xodimlar hamkorligini yo'lga qo'yish va ota-onalar hamda mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik qilishda muhim rol o'ynashini qayd etadi [3].

Klaster faoliyati o'quvchilarning ta'limga qamrovi, ishtiroki, individual rivojlanishi, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, resurslardan foydalanish samaradorligi va ota-onalar qoniqishi kabi ko'rsatkichlar asosida muntazam baholanadi (1-jadval).

1-jadval
Hududiy inklyuziv ta'lim klasterining tashkiliy tuzilmasi¹

Boshqaruv darajasi	Asosiy vazifa
Hududiy ta'lim boshqaruvi	Strategik rejalashtirish va monitoring
Klaster koordinatori	Klaster maktablari faoliyatini muvofiqlashtirish
Klaster markaziy maktabi	Umumiy metodik va maxsus xizmatlarni tashkil etish
Klaster maktablari	Inklyuziv ta'limni bevosita amalga oshirish
Maxsus pedagog	Individual ta'lim va korreksion yordam
Psixolog	Psixologik diagnostika va qo'llab-quvvatlash
Logoped	Nutqiy rivojlanish bo'yicha xizmatlar
Metodist	Pedagogik va metodik qo'llab-quvvatlash
Ota-onalar va hamjamiyat	Hamkorlik, fikr-mulohaza va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash

1 Muallif ishlanmasi



Mazkur modelda klaster markazi barcha qarorlarni o'zida jamlovchi yuqori boshqaruv organi sifatida emas, balki resurs va muvofiqlashtirish markazi sifatida qaraladi. Bu esa maktablarning mahalliy mustaqilligini saqlagan holda, umumiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan modelni baholash uchun indikatorlar tizimi ishlab chiqildi. Indikatorlar inklyuziv ta'limning faqat qamrovini emas, balki uning sifati va boshqaruv samaradorligini ham aks ettirishi kerak (2-jadval).

2-jadval
Hududiy klaster samaradorligini baholash indikatorlari²

Yo'nalish	Asosiy indikator	Baholash mazmuni
Qamrov	Inklyuziv ta'limga qamrab olingan o'quvchilar ulushi	Inklyuziv xizmatlarning mavjudligi
Ishtirok	O'quvchilarning darslarda ishtiroki	Ta'lim jarayonidagi real ishtirok
Individual rivojlanish	Individual ta'lim rejasi bajarilishi	O'quvchi rivojlanish dinamikasi
Kadrlar	Maxsus tayyorgarlikka ega pedagoglar ulushi	Kadrlar salohiyati
Resurslar	Umumiy resurslardan foydalanish darajasi	Klaster resurslaridan foydalanish
Boshqaruv	Qarorlarni amalga oshirish tezligi	Menejment samaradorligi
Hamkorlik	Maktablararo metodik hamkorlik soni	Klaster ichidagi hamkorlik
Infratuzilma	Inklyuziv infratuzilma bilan ta'minlanganlik	Jismoniy qulaylik
Ijtimoiy samaradorlik	Ota-onalar qoniqish darajasi	Foydalanuvchilar fikri
Moliyaviy samaradorlik	Bir o'quvchiga to'g'ri keladigan resurs xarajati	Resurslardan foydalanish samaradorligi

Ushbu indikatorlar tizimi UNESCO tomonidan inklyuziv va teng ta'limni baholashda ilgari surilgan tizimli monitoring yondashuvi bilan hamohangdir [1].

O'zbekiston uchun mazkur modelning dolzarbligi mamlakatda inklyuziv-resurs maktablari va markazlarini rivojlantirish bo'yicha yangi institutsional mexanizmlarning joriy etilayotgani bilan yanada kuchaymoqda. 818-son Hukumat qarorida Toshkent shahrida Ko'p funksional inklyuziv-resurs markazi, hududlarda esa Ko'p funksional inklyuziv-resurs maktablarini tashkil etish belgilangan. Shuningdek, 2027/2028-o'quv yilidan hududlarda inklyuziv maktablarni bosqichma-bosqich tashkil etish nazarda tutilgan [8].

Mazkur siyosiy yo'nalish taklif etilayotgan hududiy klasterlash modeli bilan integratsiya qilinishi mumkin. Bunda ko'p funksional inklyuziv-resurs maktabi yoki markazi klasterning yuqori darajadagi resurs markazi sifatida faoliyat yuritishi, klaster tarkibidagi umumta'lim maktablari esa o'quvchilarga kundalik ta'lim xizmatlarini taqdim etishi mumkin.

Modelning yana bir muhim jihati shundaki, u maktablarni mexanik tarzda birlashtirishni emas, balki ular o'rtasidagi funksional hamkorlikni rivojlantirishni nazarda tutadi. OECD ham maktablarni birlashtirish bilan bir qatorda, resurslardan birgalikda foydalanish, ma'muriy funksiyalarni muvofiqlashtirish va maktab klasterlaridan foydalanish kichik maktablarning samaradorligini oshirishi mumkinligini qayd etadi [4].

Shunday qilib, tahlil natijalari hududiy klasterlashni uchta asosiy muammoni bir vaqtning o'zida hal qilish imkonini beruvchi boshqaruv mexanizmi sifatida ko'rsatadi: birinchidan, ta'lim resurslarining hududlar bo'yicha tarqoqligini kamaytirish; ikkinchidan, maxsus pedagogik xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish; uchinchidan, maktab rahbarlari va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.

Biroq modelni joriy etishda maktablar o'rtasidagi geografik masofa, transport imkoniyatlari, hududning demografik xususiyatlari va klaster markazining boshqaruv salohiyati alohida baholanishi lozim. Shu sababli barcha hududlar uchun bir xil klaster hajmini belgilashdan ko'ra, mahalliy sharoitga moslashuvchan klasterlash mexanizmidan foydalanish maqsadga muvofiq.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirish faqat alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablariga qabul qilish bilan cheklanmaydi. Buning uchun maktab boshqaruvi, pedagogik kadrlar, maxsus mutaxassislar, infratuzilma, metodik ta'minot va moliyaviy resurslarni o'zaro muvofiqlashtirgan yaxlit boshqaruv tizimini shakllantirish talab etiladi.

OECD, UNESCO va World Bank materiallari tahlili maktablar o'rtasidagi hamkorlik, resurslardan birgalikda foydalanish va hududiy klasterlash maktablar tarmog'i samaradorligini oshirishning istiqbolli mexanizmlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, World Bank tomonidan tavsiya etilgan geografik jihatdan yaqin maktablarni klasterlarga birlashtirish va klaster markazini belgilash tamoyili inklyuziv ta'lim xizmatlarini hududiy jihatdan muvofiqlashtirish uchun moslashtirilishi mumkin.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan hududiy klasterlash modeli 3–7 ta geografik jihatdan yaqin maktabni funksional jihatdan birlashtirish, ulardan birini klaster markazi sifatida belgilash hamda maxsus pedagog, psixolog, logoped, metodist va boshqa resurslardan umumiy foydalanish imkonini beradi. Bunday yondashuv har bir maktabda barcha maxsus xizmatlarni alohida shakllantirish zaruratini kamaytirishi va mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida ushbu modelning amaliy ahamiyati yanada yuqori, chunki mamlakatda ko'p funksional inklyuziv-resurs markazlari va maktablarini tashkil etish, hududlarda inklyuziv maktablarni bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda maxsus pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan institutsional mexanizmlar shakllanmoqda.

Taklif etilayotgan modelning samaradorligini baholashda faqat iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish yetarli emas. Bunda inklyuziv ta'lim bilan qamrov, o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki, individual rivojlanish natijalari, pedagoglar salohiyati, inklyuziv infratuzilma, resurslardan foydalanish, maktablararo hamkorlik va ota-onalar qoniqishi kabi ko'rsatkichlar kompleks ravishda baholanishi lozim.

Shu asosda hududiy inklyuziv ta'lim klasterlarining integral samaradorlik indeksini joriy etish taklif qilinadi. Mazkur indeks hududlar va klasterlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash, resurslarni qayta taqsimlash va boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslangan holda qabul qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, hududiy klasterlashga asoslangan maktab menejmenti modeli inklyuziv ta'limning mavjud resurslardan samarali foydalanish, pedagogik hamkorlikni kuchaytirish va alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun sifatli ta'lim xizmatlarini hududiy jihatdan yaqinlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu modelni muayyan viloyat yoki tuman misolida GIS ma'lumotlari, maktablarning masofaviy joylashuvi, o'quvchilar soni va resurslar taqsimoti asosida empirik sinovdan o'tkazish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish, ularni jamiyatga integratsiya qilish va individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 818-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4532164?ONDATE=21.08.2023>
2. UNESCO. *A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education*. — Paris: UNESCO, 2017. — 42 p.
3. United Nations. *Convention on the Rights of Persons with Disabilities. Article 24: Education*. — New York: United Nations.
4. UNESCO. *Global Education Monitoring Report 2024/5: Leadership in Education – Lead for Learning*. — Paris: UNESCO, 2024.
5. OECD. *Responsive School Systems: Connecting Facilities, Sectors and Programmes for Student Success*. OECD Reviews of School Resources. — Paris: OECD Publishing, 2018. — DOI: 10.1787/9789264306707-en.
6. OECD. *Delivering Quality Education and Health Care to All: Preparing Regions for Demographic Change*. — Paris: OECD Publishing, 2021.
7. Ding E., Khurana A., Quota M. What Works for Effective School- and Cluster-Based Teacher Professional Development? Five Key Design Decisions // *World Bank Blogs*. — 2022.
8. UNICEF Uzbekistan. *Inclusive Education*. — UNICEF Uzbekistan.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni*. — 2024.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Umumta'lim muassasalarida o'quvchilar soni (jami)*. — SIAT statistik ma'lumotlar bazasi.



11. UNICEF Uzbekistan. *Legislation and Policy Review of Inclusive Education in Uzbekistan*. — Tashkent: UNICEF, 2018.
12. UNICEF Uzbekistan. *Empowering Schools for a More Inclusive and Digital Future*. — 7 July 2025.
13. World Bank. *Structuring and Supporting School- and Cluster-Based Continuous Professional Development: Technical Guidance Note*. — Washington, DC: World Bank.
14. World Bank. *Coach: Helping Countries Accelerate Learning by Improving In-Service Teacher Professional Development*. — Washington, DC: World Bank.
15. UNESCO. *Understanding How to Allocate School Resources to Implement Inclusive Education Is Critical*. — Global Education Monitoring Report background materials.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>